

## Talabalikka bir qadam

2021-yilning 16-aprel kuni Toshkent shaxar, Shayxontohur tumani kasb-hunar maktabining bir guruh o'qituvchilari hamda 35 nafar maktab o'quvchilari "Talaba-yoshlar bilan uchrashuv" hamda "Talabalikka bir qadam" deb nomlangan tadbir marafonni amalga oshirish maqsadida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga tashrif buyurishdi.



Tadbir-marafonni o'tkazishdan asosiy maqsad maktab o'quvchilarini oliy ta'lim muassasasi hayoti bilan yaqindan tanishtirish, ularni kasbga yo'naltirish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat bo'ldi.



Tashrif davomida o'quvchilar institut o'quv binolari, axborot resurs markazi, Abdulla Oripov nomidagi muzey, Abdulla Oripov nomidagi yoshlar bog'i, institut sport zallari, laboratoriya xonalari hamda talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishishdi. Tashrif o'quvchilar uchun qiziqarli va mazmunli kechdi.

**M.Baratov Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi  
TIQXMMI matbuot xizmati**